



SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

«Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari» 76 - Xalqaro konferensiyasi hamda «Stomatologiyada estetik restavratsiya mahorati» II Xalqaro olimpiadasi

2022 yil 20-21 may kunlari universitetda
"Fundamental, amaliy tibbiyot va
farmatsiya yutuqlari" talabalar va
yosh olimlarni an'anaviy 76 - Xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda
"Stomatologiyada estetik restavratsiya
mahorati" II Xalqaro ilmiy-amaliy
olimpiadasi bo'lib o'tdi.



oftalmologiyada innovatsion yondashuv; yuqumli kasalliklarning klinikasi, diagnostikasi, davolash va oldini olishga zamonaviy yondashuvlar; konferensiya doirasidagi yosh olimlar tanlovi, kollej va texnikumlarning interaktiv rivojlanishining asoslari kabi yo'nalishlari dolzarb mavzulariga bag'ishlangan 34 OTM talabalari va yosh olimlarini 270 ziyod ma'ruzalari tinglandi. Konferensiyani materiallari to'plam shaklida

Xalqaro anjuman va Olimpiadada Turkiya, Malayziya, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi, Gruziya, Qozog'iston, Ukraina, Belarus Respublikasi, Pokiston, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi, O'zbekistonning tibbiyot oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish institutlarini talabalari va yosh tadqiqotchilari ishtirok etdilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining tantanali ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov, Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev, O'zbekiston tibbiyot oliygohlari rektorlari Prezidiumi raisi Botir Daminov, I.Kant nomidagi Baltika federal universiteti rektori Aleksandr Fedorov (Kaliningrad, Rossiya), S.Asfendiyarov nomidagi Qozoq milliy tibbiyot universiteti Talgat Nurgojin (Almata, Qozog'iston), "Telemeditsina tizimlari" MChJ bosh direktori Yuriy Bogoduxov (Sankt-Peterburg, Rossiya), Ivoclar Vivadent firmasining MDH va Baltika davlatlari bo'yicha vrachlar bo'limi rahbari Viktor Daub (Yelvangel, Germaniya), Privoljsk tadqiqot tibbiyot universiteti rektori Nikolay Karyakin (Nijniy Novgorod, Rossiya), Turkiyaning Sog'liq bilimlari universiteti rektori, professor Jevdet Erdol anjuman dolzarbligini, xalqaro hamkorlikni kengaytirishda oliy ta'lim muassasalari faoliyatida qanchalik muhim ahamiyat kasb etishishi ta'kidladilar hamda barcha ishtirokchilarga omadlar va zafarlar tiladilar.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining xalqaro hamkorligini kengaytirish maqsadida Xalqaro anjuman doirasida I.Kant nomidagi Baltika federal universiteti (Kaliningrad, Rossiya) rektori Aleksandr Fedorov bilan SamDTU va BFU o'rtasida Hamkorlik memorandumini tantanali ravishda imzolandi.

Konferensiyaning tantanali ochilish marosimida mamlakatimizda tibbiy oliy ta'limni rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun



S.D.Asfendiyarov nomidagi Qozoq milliy tibbiyot universiteti rektori Talgat Seytjanovich Nurgojinga Samarqand davlat tibbiyot universiteti "Faxriy professori" unvoni berildi.

Xalqaro anjuman mehmonlari uchun universitetni yangi binosida milliy taomlar va milliy liboslar ko'rgazmasi tashkil etildi. Afg'oniston, Pokiston, Koreya Respublikasi, Hindistondan kelib Universitetda tahsil oladigan talabalar o'zlarini milliy taomlari va milliy liboslarini taqdimot qilishlari barcha ishtirokchilarga manzur bo'ldi. Shuningdek, konferensiya mehmonlari yangi o'quv binoda o'quv jarayonini olib borish uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda Universitet tarix muzeyi bilan ham tanishishdilar.

Xalqaro konferensiyani asosiy ishi shobalar yig'ilishida davom etilib, ularda — jamoat salomatligi, tibbiyotda gumanitar fanlar; ichki kasalliklar; kardiologiya; nevrologiya; psixiatriyaning dolzarb masalalari; sport tibbiyoti va rehabilitatsiya; pediatriya; akusherlik, ginekologiyaning dolzarb masalalari va reproduktiv tibbiyot; eksperimental va fundamental tibbiyot dolzarb masalalari; xirurgiya va urologiyaning dolzarb masalalari; bolalar xirurgiyasining dolzarb masalalari; neyroxirurgiya, onkologiyaning dolzarb masalalari va travmatologiya; klinik va fundamental farmakologiyaning zamonaviy yutuqlari; stomatologiya, otorinolaringologiya va

"Biologiya va tibbiyot muammolari" xalqaro jurnalini maxsus sonida chop etildi.

"Stomatologiyada estetik restavratsiya mahorati" II Xalqaro ilmiy-amaliy olimpiadasi ishtirokchilari 3 bosqichda o'z bilim va mahoratlarini sinovdan o'tkazdilar. Xalqaro hay'at a'zolari tomonidan yosh tadqiqotlarni nazariy bilimlari test topshiriqlarini bajarishda, og'zaki savol-javob va tishlarni restavratsiyalash orqali amaliy ko'nikmalarni bajarishlari xolisona baholandi.

Xalqaro konferensiya va Olimpiada doirasida universitetning IT-inkubatsion Markazini tantanali ochilish marosimi ham o'tkazildi. Bugungi kunda globallashuv tendensiyalari davlatlar taraqqiyotini bevosita axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan bog'liq bo'lishini taqozo etmoqda, shuning uchun dunyoning ko'plab mamlakatlari IT ekotizimini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratmoqda. Universitetda IT-inkubatsion markazining ochilishi albatta iqtidorli talabalarning g'oyalari va Startap loyihalarini rag'batlantirishga, Universitetni mamlakatimizdagi nufuzli oliy ta'lim muassasasi sifatida faol ishtirokchisiga aylantirishga, axborot raqamlashtirishning jadal rivojlanish sur'atlariga hissa qo'shishga turtki bo'ladi.

"Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari" talabalar va yosh olimlar an'anaviy 76 - Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi hamda "Stomatologiyada estetik restavratsiya mahorati" II Xalqaro ilmiy-amaliy olimpiadasi yosh olimlar va talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish, salohiyati va ilmiy izlanishlaridan samarali foydalanish, fundamental va klinik fanlar o'qitish sifatini yanada oshirish, mamlakatimizda tibbiyot sohalarini rivojlantirish hamda oliygohlarni xalqaro hamkorligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Malayziya OTMlari bilan hamkorlik

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan "Malayziyada ta'lim olish EXPO-2022" doirasida mazkur mamlakatni 10 ta yetuk Universitetlarining professor-o'qituvchilari 2022-yil 19-may kuni universitetimizga tashrif buyurdilar.

Shu munosabat bilan universitetda talabalar forumi tashkil etilib uning doirasida Malayziyadagi tibbiy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Tadbir O'zbekiston yoshlar assotsiatsiyasi hamda "Q Study" tashkiloti yordamida amalga oshirildi. Tashrif davomida universitet va Malayziyaning bir qator universitetlari bilan o'zaro hamkorlik bo'yicha kelishuvga erishildi.

Eslatib o'tamiz, o'tgan bir yillik hamkorlik natijasida O'zbekistonlik yoshlarga Malayziyada ta'lim olish uchun 100dan ortiq grantlar tashkil etildi. Kelgusida esa Yoshlar Forumi, magistratura talabalari va yosh izlanuvchilar uchun konferensiyalar vebinarlar va boshqa loyihalarni birgalikda tashkillashtirishga kelishib olindi.



CHUVASH DAVLAT UNIVERSITETI VAKILLARI BILAN UCHRASHUV

O'zbekiston Respublikasida rus tili va madaniyati festivali xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – rus tilini targ'ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish doirasida festival tashkil etilmoqda.

2022 yil 12-19 may kunlari universitetimizda I.N.Ulyanov nomidagi Chuvash davlat universiteti professor-o'qituvchilari va «Russkiy mir» jamg'armasi ko'magida bir qator tadbirlar o'tkazildi. O'qituvchilar uchun «Russhunoslar kuni» ilmiy-metodik seminari, mahorat darsi, davra suhbat, interaktiv ma'ruza, olimpiada, adabiy va lingvistik viktorina, kitoblar ko'rgazmasi, kitobxonlar tanlovi, milliy liboslar fotoko'rgazmasi, teatr miniatyuralari tanlovi va multimedia taqdimoti shaklida Rossiyaga virtual sayohat bo'lib o'tdi.

Universitetimiz va I.N.Ulyanov nomidagi Chuvash davlat universiteti o'rtasida tuzilgan hamkorlik shartnomasi doirasida hafta davomida "O'zbek tili va adabiyoti rus tili" kafedrasida xodimlari festivalda faol ishtirok etishdi. Kafedralar o'rtasida ilmiy konferensiyalar, seminarlar, mahorat saboqlari va treninglarda o'zaro asosda ishtirok etish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish bo'yicha muntazam tajriba almashish, ilg'or ta'lim texnologiyalaridan samaraliroq foydalanishga ko'maklashish va kafedralar o'rtasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro rus tili festivali rossiyalik mutaxassislarining talabalari va o'qituvchilari uchun o'quv va ijodiy platforma bo'lib, u til bilimlarini

oshirish va ijodiy testlarda o'z iste'dodini namoyon etish imkonini beradi.

Shuningdek, Chuvash davlat universitetining xalqaro faoliyat bo'limi boshlig'i Yevgeniy Nikolaev boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi. Muzokarlarda xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori Zafar Aminov, xalqaro ta'lim fakulteti hamda o'quv bo'limi xodimlari ishtirok etdilar.

Mehmonlar iliq qabul uchun universitet rahbariyatiga minnatdorchilik bildirdilar. Muzokarlarda Chuvash davlat universiteti bilan "qo'shma dastur" bo'yicha hamkorlik qilishni rivojlantirish, akademik mobillik va ilmiy sohada o'zaro loyihalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha ikki tomonlama manfaatli hamkorlik rejalari kelishib olindi.



18-may kuni universitetda viloyat hokimligini oila va xotin-kizlar boshqarmasi hamda "Olima" uyushmasi viloyat bo'limi hamkorligida xotin-qizlarning "INNOWOMEN WEEK" haftaligi doirasida "Innovatsion g'oyalar va loyihalarni tibbiyotdagi o'rni va ahamiyati" mavzusida olima ayollarni ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

INNOVATSION G'OYALARGA BAG'ISHLANGAN KONFERENSIYA

Konferensiyani universitet rektori Jasur Rizayev kirish so'zi bilan ochib berib, davlatimiz tomonidan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar, oliygohda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida to'xtalib o'tdilar.

Konferensiya ishida viloyat hokimi o'rinbosari — "Oila va xotin-qizlar boshqarmasi" boshlig'i Zebiniso Po'latova, boshqarma huquqshunosi Fotima Botirova, "Olima" viloyat uyushmasi raisi o'rinbosari Jamila Badriddinova ishtirok etib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining mazmun-mohiyati hamda xotin-qizlarni ilm-fan sohasidagi yutuqlari, ularga yaratilgan imkoniyatlar to'g'risida fikr bildirdilar.

Universitet olimlari tomonidan innovatsion g'oyalar va loyihalarning tibbiyotdagi ahamiyati to'g'risida qiziqarli taqdimotlar taqdim qilindi, fikr va mulohazalar bildirildi.

Konferensiya yakunida universitetimizning bir qator olimlari va xotin-qizlar kengashi faollari viloyat hokimligining tashakkurnomalari bilan taqdirlandilar.

«NURLI DIAGNOSTIKA VA DAVOLASHNING YANGI TEXNOLOGIYALARI»

2022 yil 5-6 may kunlari universitetda “Nurli diagnostika va davolashni yangi texnologiyalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi tashkil qilindi.

Xalqaro anjumanda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Avstriya, Bangladesh, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonni radiologlar jamiyatlari vakillari, respublikamizdagi, yaqin va uzoq xorijiy davlatlar nufuzli oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlarining olimlari va izlanuvchilari ishtirok etdilar.

Xalqaro anjumanni o'tkazishda yangi texnologiyalarni klinik tibbiyotga joriy qilish, yangi texnologiyalarni amaliy sog'liqni saqlash taraqqiyotidagi hissasini, vizualizatsiyalashni bemorlarni davolashdagi o'rnini muhokama qilish kabi asosiy maqsadlar ko'zda tutildi.

Konferensiyani viloyat Yoshlar markazida bo'lib o'tgan tantanali ochilishida Samarqand viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Xurshid Ochilov, universitetimiz rektori Jasur Rizayev, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari Amrillo Inoyatov, Sportni rivojlantirish vaziri Adham Ikramov, Marat Xodjibekov — professor, O'zbekiston radiologlar jamiyati raisi (Toshkent, O'zbekiston), Rainer Rienmueller — Medical University of Graz professori (Vena, Avstriya), Valeriy Krilov — A.F.Siba nomidagi tibbiyot markazini ochiq radionuklidlar



bilan davolash radio jarrohlik bo'limi rahbari (Obninsk, Rossiya), Raushan Raximjanova — professor, Qozog'iston radiologiya jamiyati prezidenti (Nur-Sulton, Qozog'iston), Akram Fozilov — tibbiyot xodimlari kasbiy malakasini oshirish markazi professori (Toshkent, O'zbekiston), Gulnora Yusupaliyeva — t.f.d., ToshDPI tibbiy radiologiya kafedrasini mudiri (Toshkent, O'zbekiston) va boshqalar so'zga chiqib, nurli diagnostika va tibbiy radiologiyani zamonaviy rivojini ustuvorlari, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlash hamda xalqaro aloqalarni rivojlantirish ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdilar.

Yalpi majlisdan so'ng xalqaro anjumanni ishi beshta sho'bada davom ettirilib, klinik tibbiyotda nurli diagnostikani yangi texnologiyalari, onkologiyada diagnostik radiologiya va nur terapiyasi, jarohatlar va shoshilinch holatlarda nurli diagnostika, tegishli mutaxassisliklarda nurli diagnostika

hamda yosh tadqiqotchilarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini natijalariga bag'ishlangan 100 ziyod ma'ruzalar qilindi va tegishli yo'nalishlardagi ilmiy yangiliklar soha mutaxassislari tomonidan muhokama qilindi.

Anjuman doirasida radiologiyani MRT, kompyuterli tomografiya, UTT, rentgenologiya va radioterapiya yo'nalishlari bo'yicha xalqaro tanlovlar ham o'tkaziladi. Tanlovlarda universitet bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, klinik ordinatorlari, viloyatlardan kelgan amaliyot shifokorlari bilan bir qatorda Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston vakillari ham ishtirok etishi kutilmoqda.

Universitet tomonidan o'tkazilgan “Nurli diagnostika va davolashni yangi texnologiyalari” xalqaro konferensiyasi respublika va mintaqamizda nurli diagnostika va radiologiyani taraqqiy toptirish, ilmiy yangiliklarni klinik tibbiyotga joriy qilish, malakali tibbiyot kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish hamda respublikamiz tibbiyot oliygohlari va ilmiy tekshirish markazlari xalqaro aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

«Universitet 3.0 modeliga boqichma-bosqich o'tishda dual ta'lim»



Oliy gohimizda
“Universitet 3.0 modeliga boqichma-bosqich o'tishda dual ta'lim” mavzusida amaliy seminar o'tkazildi. Uchrashuvda farmatsiya fakultetini talabalari, tibbiy kimyo kafedrasini professor-o'qituvchilari ishtirok etdilar.

Seminarni universitet

ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, t.f.d Sh.Ziyadullaev ochib berdi. So'ng, tibbiy kimyo kafedrasini mudiri, t.f.d. D.Xolmurodova Universitet 3.0 modeli va DUAL ta'lim haqida tushuncha berdi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bosqichma-bosqich “Universitet 3.0” tushunchasini joriy etish, mazkur modelda fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatini rivojlantirish ham belgilangan. Dual ta'lim — bu ta'lim turi bo'lib, bunda nazariy qism universitetda, amaliy qism esa ishlab chiqarish korxonasida o'tiladi.

Seminarda ilg'or ishlab chiqarish kompaniyalaridan hisoblanadigan “Samarkand England Eco-Medical” kompaniyasi kadrlar bo'limi boshlig'i Dilerbek Narbekzoda, ISM bo'limi menejeri Faridun Vaxidovlar qatnashib talabalarga kompaniyani ish faoliyati hamda zamonaviy xodimlarga qo'yilayotgan talablar haqida batafsil tushuntirdilar.

Seminar savol-javob va jonli muloqot tarzida o'tdi. Talabalari shunday seminarlar ko'proq tashkil etish taklifini berdilar.

UNIVERSITETIMIZ NUFUZLI XALQARO REYTINGGA KIRDI

Oliy ta'lim muassasalarining nufuzli xalqaro reytingi hisoblangan Times Higher Education o'zining 2022-yil uchun Impact reytingi (THE Impact Rankings 2022) natijalarini e'lon qildi. Mazkur reytingdan mamlakatimizning 30 ta oliy ta'lim muassasasi o'rin egalladi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti xalqaro reytingga kirib Samarqand viloyati bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

Ma'lumot uchun, 2021-yilda ushbu reytingga 10 ta oliy ta'lim muassasasi kirgan edi. O'tgan yili ushbu reytingda 94 ta davlatdan 1000 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari ishtirok etgan bo'lsa, 2022-yilda 110 ta davlatdan 1500 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari qatnashdi.

Reytingdan o'rin olgan oliygohlar:

SamDTU matbuot xizmati



9-MAY
XOTIRA VA
QADRLASH
KUNI

«9-MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI»GA BAG'ISHLANGAN TADBIRLAR

9-may – «Xotira va qadrlash kuni» butun mamlakatimizda keng nishonlanadi. Ko'p millatli xalqimizga musibat va talofatlar olib kelgan bu urush yurtimizning uzoq tarixida chuqur yara bo'lib qolgan.



Ushbu unutilmas sana universitet jamoasi tomonidan ham keng nishonlandi. Bu kun arafasida universitet professor-o'qituvchilari ko'p yillik mehnat faoliyati bilan shug'ullangan, ayni damda keksalik gashtini surayotgan xodimlarning honadonlariga tashrif buyurib, ularni tabriklashdi.

Universitetning yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor E. Tangirov boshchiligidagi vakillar umumxalq bayrami arafasida uzoq yillar terapiya kafedrasida mehnat qilgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent Fazliddin Asliddinovni ziyorat qilishdi. Mehmonlar faxriyga ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun minnatdorchilik bildirib, unga mustahkam sog'lik, uzoq umr tilab, universitet rahbariyati nomidan esdalik sovg'alarini topshirishdi.

Bayram arafasida Farmatsevtika fakulteti biokimyo kafedrasida xodimlari X.Nurboyev va Sh.Keldiyarova shahardagi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining Kichik serjantlarni tayyorlash bilim yurti harbiy xizmatchilari bilan



uchrashib, ularni unutilmas sana bilan qutlashdi.

Farmakognoziya va farmatsevtik texnologiyalar kafedrasida jamoasi universitetda uzoq yillik mehnat faoliyatini olib borgan Usmon Karimovni tabriklashdi.

Universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi faollari kafedralar vakillari bilan birgalikda oliygohning faxriy xodimlari – Lyubov Urazovna Xalikova (dotsent, endokrinologiya kafedrasida sobiq mudiri), Said G'ofurova (farmakologiya kafedrasida katta o'qituvchisi), Nazira Alimovna Karimova (dotsent, endokrinologiya kafedrasida mudiri), Xayriniso Xodjayeva (farmakologiya kafedrasida katta o'qituvchisi) xonadonlariga tashrif buyurib, ularni tabriklashdi.

Universitetning keksa xodimlari tabriklar uchun SamMU rahbariyatiga samimiy minnatdorchilik bildirishdi, tinch va farovon hayotning qadriga yetish borasida fikrlarini bildirishdi hamda xalqimizga ravnaq va farovonlik tilashdi.

9-MAY - XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Xotira bor ekan, tirikdir millat,
Tirikdir iftixor, tirikdir g'urur.
Xotira — elni xalq etguvchi qudrat,
Xotira — ertani yoritguvchi nur.

Hatto maysaning ham xotirasi bor,
Maysa xotirasi — nurga intilmoq.
Ko'karsa — ikkiga bo'lib tashlaydi
Yo'lining ustida tursa hatto tog'.

To quyosh osmonda porlab turarkan,
Osmonday mangusan, ey, ona xalqim!
Har bir fojiga, har bir sharafga,
Baho bermoqqa ham yolg'iz sen haqli!
Xurshid Davron

«EKOLOGIK BILIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH»

18-may kuni universitetda
«Ekologik bilim va madaniyatni
shakllantirish» mavzusida davra
suhbati o'tkazildi.

Tadbirda universitet professor-o'qituvchilari va talabalari hamda Samarqand viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi vakillari ishtirok etdilar.

Davra suhbatida so'zga chiqqanlar ekologik qonunchilik-ekologik huquqni ta'minlash omili mavzusida chiqishlar qilib butun dunyoda global bo'lgan ekologik muammolar va ularning insoniyatga ta'siri to'g'risida tushunchalar

berish bilan bir qatorda ekologik holatlarni oldini olish borasida insoniyat birdek kurashishi lozimligi xususida qator tavsiyalar ham berib o'tdilar.

Davra suhbatida jonli muloqot sifatida o'tkazilib uning davomida ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar tomonidan atroflicha javoblar qaytarildi.



ISHCHI GURUH VAKILLARI KATTAQO'RG'ON VA ISHTIXON TUMANLARIDA

Samarqand viloyatidagi mahallalardagi yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga ko'maklashish maqsadida "Samarqand tajribasi" sifatida "Tashabbuskor ko'makchi" shiori ostida xalq ta'limi, madaniyat, sportni rivojlantirish, ma'naviyat va ma'rifat, oliy ta'lim, axborot texnologiyalari hamda mudofaa tizimlari xodimlaridan iborat ishchi guruhlarini faoliyati boshlandi.



Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on va Ishtixon tumanlarida 13-14 may kunlari mas'ul tashkilotlar vakillari, shu jumladan tumanlardagi yoshlar yetakchilari, nuroniylar jamiyati, ma'naviyat va ma'rifat markazi, mahalla raislari, maktablar targ'ibotchilari va harbiy ta'lim o'qituvchilari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Yig'ilishlarda universitetdan S.Halimov boshchiligidagi ishchi guruh vakillari ham qatnashdilar.

Bo'lib o'tgan uchrashuvlarda belgilangan rejalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni olib borish, jumladan har bir mahallada yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish bo'yicha tadbirlar o'tkazish, "Besh tashabbus" doirasidagi tadbirlarni o'tkazishga ko'maklashish, yosh avlod vakillari orasida ma'naviy targ'ibot ishlarini olib borish kabi masalalar keng muhokama etildi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetiga Kattaqo'rg'on tumanining 69 ta, Ishtixon tumani bo'yicha 62 ta mahalla fuqarolar yig'ini birlashtirilgan.

"DO'STLIK PALOVIGA MARHAMAT!"

Universitetda turli davlatlardan kelib tahsil olayotgan talabalarni o'zaro do'stligi va madaniyatlarga muloqotini rivojlantirish, talaba-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash maqsadida xotin-qizlar maslahat kengashi faollari, 1- va 2- davolash ishi, tibbiy pedagogika fakultetlari dekan maslahatchilari va 4-ichki kasalliklar kafedrasi tomonidan 1-son talabalar turar joyida qoraqalpoq, o'zbek, tojik, pokistonlik, hind va afg'on qizlari o'rtasida palov pishirish do'stona tanlovi o'tkazildi.

Pazanda qizlarimiz o'zaro bellashib, mahoratlarini namoyon etishib, berilgan vaqtga rioya qilgan holda bir xil masalliklardan chiroyli ko'rinishga ega va mazali palovlarni pishirishdilar.

Tanlovda afg'on va o'zbek qizlari tomonidan tayyorlangan "Sitara" palov eng mazali palov deb topildi va tashkilotchilar tomonidan taqdirlandilar.

Bayram dasturxonini bezatilib, barcha ishtirokchilarga do'stlik palovlari tortildi, do'stona qiziqarli suhbatlar, kuy va qo'shiqlarga ulashib ketdi.

SamDTU matbuot xizmati



QO'SHRABOT TUMANI MAKTABIDA UCHRASHUV



2022-yil 14-may kuni universitetning farmatsiya fakultetiga qarashli biokimyo kafedrasi professor-o'qituvchilari Qo'shrabot tumani "Kuvkalla" mahallasi hududida joylashgan 70-son maktabda tuman ta'lim boshqarmasi bilan tadbir o'tkazdilar.

Tadbirda tuman hokimi X.Okbutayev, mahalla yoshlar yetakchilari, nuroniylar jamiyati, ma'naviyat va ma'rifat markazi, mahalla raislari, maktablarga birlashtirilgan targ'ibotchilari va harbiy ta'lim o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Tadbirda shoir, Respublika yozuvchilar uyushmasi a'zosi Sobir Unar kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Universitetimiz xodimlari maktab o'quvchilari bilan ham uchrashib, ularga mahorat darslarini o'tib berdilar hamda universitet ma'muriyati va kafedra tomonidan maktabning biologiya va kimyo o'quv xonalariga o'quv anjomlari, mulyajlar, reaktivlar va laboratoriya idishlarini sovg'a qildilar.

Amalga oshirilgan tashrif uchun tuman hokimligi ma'muriyati va maktab rahbariyati universitetga alohida minnatdorchiliklar bildirdilar.



"ZAKOVAT" KUBOGINING FINAL BOSQICHI

12-may kuni universitetda "Zakovat" turnirining yakuniy final bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda avval saralangan jamoalar, shuningdek, universitet rahbariyati jamoasi ishtirok etdi. Ishtirokchi jamoalarni universitet xodimlari, o'qituvchilari va talabalari qo'llab-quvvatladilar.

Ochilish so'zi bilan chiqish qilgan rektor Jasur Rizayev barcha ishtirokchilarni avval erishilgan natijalar va musobaqaning final turniridagi ishtiroki bilan tabriklab, barchaga muvaffaqiyatli musobaqalar tiladi.


Ishtirokchi jamoalar o'rtasidagi keskin kurashda to'rtta jamoa 2-bosqichga yo'l oldi, so'ngra o'zaro kuch sinashdi. Turnir yakuniga ko'ra pediatriya fakulteti jamoasi chempionlikni qo'lga kiritdi, ikkinchi o'rin stomatologiya fakulteti jamoasiga va uchinchi o'rin tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti dekan o'rinbosari jamoasiga nasib etdi. G'olib jamoalar olgan o'rinlariga qarab 5, 3 va 2 million so'mlik pul vaucherlari bilan mukofotlandilar.

"Zakovat" kubogining yakuniy turniri davomida hukm surgan bayramona muhit, barcha ishtirokchilarga shodlik va ko'tarinki kayfiyatni bag'ishladi.



Bahor chog'i meni yod et...

Har bahordan bu yilgi bahor o'zgacha keldi. Girlarda boychechaklar bahor qo'shig'in boshlashi bilan daraxtlar gul ochmoqqa shoshildi. Gul ishqidagi arilar qanot qoqmasdan qora bulutlar borliq uzra hukmronlik istagida chor atrofni bosqin qildi. Bahor yomg'iri bir sharros quyib o'tib ketar, degan niyatdagi insonlar o'ylagandek bo'lmadi. Bulut tarqalmay, yomg'ir tinmay turib, Navro'zni ham nishonladik. Ollohimning mehri va sahovati bilan Quyosh ham yurtimiz dalalarini qizdira boshlashi bilan Ro'zayi Ramazonni ham boshlab yubordik. Ushbu qutlug' kunlarda niyatlari ko'ngillaridek oppoq xalqim elu-yurtga omonlik tilab duolar qilmoqda. O'z duolarida muborak tuprog'imizda mangu qo'nim topgan aziz-avliyolar, ota-bobolar, onajonu momolar haqlariga tilovatlar qilmoqda... Mehribon xalqim o'ziga mehr ko'rsatgan, ilm bergan ustozlarni ham unutmaydi...



Muddao

Zo'r bir qo'shiq aytsam, der, edim,
Yaxlit bo'lsa unda ishq dardi.
Band-bandini topib jamlardim
Hayajonim sochib tashlardi.
Qo'shiqlarda bor ekan chidam,
Yuragimda qaynab pishdilar.
Reza-reza qalam uchidan
Qatra-qatra bo'lib tushdilar.

Meni yod et...

Qora ko'zim, ey, gul, dildor,
Bahor chog'i meni yod et.
Biyobonda kezar bo'lsang,
Nahor chog'i meni yod et.
Qaro ko'zim, so'lim dildor,
Senga aylab sirim oshkor,
O'tar bo'lsang kecha bedor,
Sahar chog'i meni yod et.
Qaro ko'zim, o'zing dildor,
Ajab so'zlar, chamanzor bor,
Ko'zim tushsa, etar xumor,
Xumor chog'i meni yod et...

Har qanday go'zalni go'zal demasman,
Go'zalda bir g'ayri alomat bo'lar.
Zulfi bir yondayu, kokil bir yonda,
O'zi bilmas, o'zida bir odat bo'lar.
Bo'yni uzra sadaf, marjon tizilur,
Qiyo boqsa jon tanimdan uzulur,
Surma tortgan qaro ko'zlar suzulur,
O'tirib turmog'i qiyomat bo'lar.
Alplar qurbon bo'lsin qo'sha tog'iga,
Taqimga chirmashgan soch so'rog'iga,
Qoshlari o'xshaydi oy o'rog'iga,
Tomosha aylagan betoqat bo'lar.
Bu qanday odatdir, qanday arkondir,
Demaysiz Faloniy bizning mehmondir,
O'z qulingdir, har on senga Hamdamdir,
Istasang yoningda hamrohing bo'lar.

Zafar Maxmudov, tillar kafedrası assistenti

Bugun kamtarin va hokisor inson, uzoq yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot institutida lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan talabalarga va hamkasblariga ilm sirlarini chin dildan o'rgatib kelgan, birqancha o'quv qo'llanmalar va Lotin tili darsligi muallifi Umarov Hamdam Tirkashevichni yod etish, u kishi haqida hamma bilgan va bilmagan qirralarini aytib o'tish niyatidaman.

Hamdam Tirkashevich Umarov 1962 yil 20 yanvar kuni Qashqadaryo viloyatida dunyoga kelgan, 1992 yildan 2020 yil sentyabrigacha institutda lotin tilidan dars berdi. Bevaqt o'lim, nomard pandemiya u kishini oramizdan olib ketdi. U kishini yaxshi tanimaganlar jim turganlarini ko'rib qanday hayollarga borganligini bilmadimu, lekin, u kishi bilan bir marta suhbatlashgan odam uzoq yillar bu suhbatni eslab qolishi, yana boshqa mavzularda ham gaplashishni istashi shubhasiz. Men Hamdam Tirkashevichning qanday dars o'tishi haqida Sizlarga

ma'ruza qilmoqchi emasman. U kishining hazilkashligi, shoirtabiatligi, har bir so'zni topib gapirishligini, ta'bir joyiz bo'lsa, so'zni behuda sarflamasligini aytib o'tmoqchiman, xolos. Hamdam aka shoirlik davo qilmas, lekin, she'rsiz gapirmas edi. Davralarda she'rlari va hazillari, hozirjavobligi bilan o'z o'rniga ega edi. O'sha joy hozirda bo'sh... She'rlarini eshitib qo'shiqlarni eslersiz, balki. Balki, bu mashhur shoirning she'riku, dersiz. Balki, ko'ngilga yaqin so'z, ko'ngilga yaqin she'r shunday bo'lar... Men quyida u kishining ayrim she'rlarini Siz bilan bo'lishmoqchiman. Siz ham o'z duolaringizda u kishining haqlariga bir-bir tilovatlar qilib Olloh bilan bo'lishishingizga ishonaman. Zero, barchamizni uzoq yillardan keyin ham eslaydigan shogirdlar bo'lsin...

Hamdam Tirkashevich Umarov hayot bo'lganlarida bu yil 60 yoshni qarshilagan bo'lar edi... Aytmog'chi bo'lgan gaplarim ko'p, lekin Sizning ham fikringiz bor...

"Chekish siz va atrofingizdagilar sog'ligi uchun jiddiy zarar yetkazadi" deb nikotin maxsulotlari qutisida yozilgan va ogohlantirilgan bo'lishiga qaramasdan biz insonlar o'z sog'ligimizga befarqmiz. Chekish, ya'ni kashandalik o'limga olib kelishi biz o'ylagandan ham yuqori.

Kashandalik oqibatida yer yuzida har yili 7,5 millionga yaqin kishi hayotdan ko'z yumadi. Ayni paytda jaxonda 1,6 milliardga yaqin tamaki chekuvchilar mavjud desak mubolog'a bo'lmaydi. Chekuvchilar soni yildan-yilga o'sib bormoqda. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra yurtimizda taxminan 2,9 millionga yaqin doimiy chekuvchilar mavjud bo'lib, shularning yarmidan ko'pining hayoti xavf ostida.

Tamaki va uning tutuni tarkibida inson organizmiga zarar yetkazuvchi 400 xil turlicha birikmalar aniqlangan bo'lib, ularning inson organizmiga zaharlovchi ta'siri ham aniqlangan. Tamaki tarkibidagi nikotin moddasi kashandalik xumorini keltirib chiqaruvchi kuchli zahardir. Chekish natijasida miya nikotin moddasini kelib turishiga o'rganib qolib, uning ishlashini ma'lum darajada yengillashtiradi. Kashanda miyani nikotin bilan tetiklashtirib turadi, oqibatda chekishga odatlanib qoladi, organizmga nikotin moddasi kirmay qolsa bezovtalik, asabiylik, serzardalik holatlari kuzatiladi. Nikotin ta'siri ostida miya tomirlarining orasi qisqaradi, qon miyaga kam miqdorda keladi, natijada bosh og'irishi va aylanishi paydo bo'ladi. Nikotin qon bosimini ko'taradi va



Chekish umringizni qisqartiradi

asta-sekin inson xotirasini pasayishiga olib keladi. Tamakida kantserogen ta'sirga ega bo'lgan modda ya'ni benzoperin mavjud. Tamaki inson salomatligi uchun xavfli bo'lib, yurak qon-tomir, nafas olish, ovqat xazm qilish, asab ichki sekretiya, jinsiy bezlar a'zolariga zaharli ta'sir qilib miokard infarkti, xafaqon kasalligi, bronxlarning surunkali yallig'lanishi, organizmda xavfli o'smalar singari ko'pgina xavfli kasalliklarga sabab bo'ladi. Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Samarqand viloyat mintaqaviy filiali har yili 31-may - Xalqaro chekishga qarshi kurashish kuni munosabati bilan, tumanlar, shahar miqiyosida tadbirlar va marafonlar o'tkazadi. Biz narkologiya dispanseri vrach narkologlari barcha chekuvchi insonlar sog'ligini va sog'lom turmush tarzini o'ylab onlayn va matbuot orqali chekuvchi insonlarga qaratib shunday demoqchimiz: Sog'ligingiz o'z qo'lingizda kashandalikka ruju qo'ymang, "Kashandalik umr zavoli". Agar sog'lom bo'laman desangiz, jech qachon tamakiga qo'l cho'zmang, yoningizdagilarni ham ogohlantiring.

SamDTU Teri-tanosil kasalliklari kafedrası mudiri: Z.F.Ashirov
SamDTU Teri-tanosil kasalliklari kafedrası assistenti:

M.M.Tolibov

RINIATM Samarqand viloyati mintaqaviy filiali vrach narkologi:
D.Z.Qosimova



«FAROVON OILA — JAMIYATNING MUSTAHKAM POYDEVORI!»

“15-may — Xalqaro oila kuni” munosabati bilan universitet xotin-qizlar maslahat kengashi tashabbusi bilan professor-o'qituvchilar va talabalar bilan “Oila farovonligi yo'lida” shiori ostida “Farovon oila — jamiyatning mustahkam poydevori!” mavzusida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbir asosiy maqsadi yoshlarga oilaning muqaddasligi, oila go'zal urf odatlar, qadriyatlarini o'zida asrovchi, jamiyatning asosiy elementi, ulug' dargohligi, uni asrab avaylash va mustahkamlash barchani muqaddas burchi ekanligini muhokama qilish bo'ldi. Shuni inobatga olib, 30-40 yildan ortiq oilaviy hayot tajribalisiga ega, universitetda ko'p yillar davomida dars berib kelayotgan ustozlar — professor N.Zakirova, dotsent E.Minulin, o'qituvchi B.Kiyamovlar o'zlarining oilaviy hayot yo'llari, oila mustahkam, farovon bo'lishi, sog'lom va baxtli yashash sirlari to'g'risida yoshlar bilan o'rtoqlashdilar.

Uchrashuv ochiq muloqot shaklida bo'ldi va savollarga javoblar bilan yakun topdi.



“TIBBIY FANLARNING DOLZARB MASALALARI”

Universitetning akademik litseyida “Tibbiy fanlarning dolzarb masalalari” I-Respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Konferensiyada respublikani viloyatlaridan, Samarqand shahrida joylashgan akademik litseylar vakillari o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan onlayn hamda offlayn tarzda ishtirok etdilar.

Konferensiyada rektor maslahatchisi G.Xudayberdieva, N.Sodiqov, G.Samiyeva, Sh.Muxitdinov, M.Malkov, Samarqand shahri akademik litseyi direktorlari, TDPI akademik litseyi kimyo kafedrasini mudiri PhD L.Zaylobov, litsey o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirok etdilar. Tantanali ochilishidan so'ng, konferensiya ishi 3 ta sho'bag'a olib borildi. Anjumanda yosh olimlar, ilmiy izlanuvchilar va iste'dodli talaba-o'quvchilarning ma'ruzalari eshitildi, o'zaro ilmiy muzokaralar olib borildi.

Qiziqarli ma'ruzalar mualliflari konferensiyani diplom va sertifikatlar bilan tantanali ravishda taqdirlandilar.

HURMATLI TALABALAR, MAGISTRLAR, KLINIK ORDINATORLARI!

Sizni akusherlik va ginekologiyani, neonatologiya kursi bilan kafedrasini mudiri, dotsent L.Agababyaning ochiq ma'ruzasiga taklif qilamiz. Akusherlik va ginekologiyani dolzarb muammosi bag'ishlangan «Akusherlik agressiyasi, fertil yoshidagi ayollarning nogironligi sababchisidir» ochiq ma'ruzasini 2022-yil 21-iyun kuni soat 10:00da Samarqand shahar 2-son tug'ruq majmuasining ma'ruza zalida bo'lib o'tadi.

Manzil: Mahmud Qoshgariy ko'chasi, 75. DKTF kursantlari, klinik ordinatolar, quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha magistratura rezidentlari taklif etiladi: akusherlik va ginekologiya, neonatologiya va barcha studentlar.

DAVOLASH FAKULTETI BITIRUVCHILARI BILAN UCHRASHUV



18-may kuni universitet davolash fakultetining 2021-2022 o'quv yili bitiruvchilari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Talabalar bilan uchrashuvda fakultet dekani G'ayrat Lutfullayev bitiruvchilarga yaqinlashayotgan Yakuniy Davlat attestatsiyasiga mukammal tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tavsiyalar haqida batafsil gapirib berdi hamda bitiruv jarayoni bilan bog'liq talabalarning savollariga javoblar qaytardi.

Uchrashuv ochiq va samimiy muloqot tarzida bo'lib o'tdi.

“MILLIY LIBOS - MILLAT QIYOFASI”

Universitet yangi o'quv binosi hovlisida xotin-qizlar maslahat kengashi tashabbusi bilan “Milliy libos — millat qiyofasi” shiori ostida ma'naviy-madaniy uchrashuv o'tkazildi.

Tadbirda fakultetlar xotin-qizlar maslahat kengashini faollari, bo'limlar xodimlari va kafedralar professor-o'qituvchilari, fakultetlar dekanatlari xodimlari tyutorlar hamda talaba-qizlar faol ishtirok etdilar.

Tadbirni tantanali ochilishida universitet rektori Jasur Rizayev barcha ishtirokchilarni tabriklab, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va milliy liboslarimizga mehr uyg'otish, ommalashtirish va kiyinish madaniyatini yuksaltirish har bir ziyolini vazifasi ekanligini ta'kidladilar. Boshqa chiqish qilganlar ham milliy liboslar millat yuzi, inson korki va milliy iftixor ifodasi ekanligini aytib o'tdilar.

Talabalar tomonidan milliy liboslar namoyishi ham o'tkazildi. Yangragan kuy-qo'shiq va raqslar esa barcha ishtirokchilarga bayram kayfiyatini olib keldi.



Davolash Fakulteti

OCHIQ MA'RUZA E'LONI

Mavzu: «Allergik kasalliklar. Etiologiyasi, patogenez, tasnifi, klinikasi, laborator-instrumental diagnostikasi»

Ma'ruzachi: 4-ichki kasalliklar kafedrasini mudiri, PhD. M.Xoljigitova

Ekspertlar: 1. Professor. t.f.d Tashkenbayeva E.N. 2. Dotsent. Ziyadullayev SH.X

Sanasi: 27.05.2022, soat 13:10da

O'tkazish joyi: Kafedra ma'ruza zalida

Taklif qilinglar: Davolash fakulteti V-kurs 513-516-guruh talabalari, klinik ordinatolar, bo'lim vrachlari, poliklinika vrachlari, dekanat ma'sul xodimlari, institutning terapevtik kafedralari xodimlari va hohlovchilar.

SamDTU quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi

1-SON DAVOLASH FAKULTETI

Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
Urologiya kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin.

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

Og'iz Bo'shlig'i jarrohligi va dental implantologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
Yuz-jag' xirurgiyasi kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin.
Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti
Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasida, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;
Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
Epidemiologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin.

TIBBIY PEDAGOGIKA VA OLIY HAMSHIRALIK ISHI FAKULTETI

Endokrinologiya kafedrasida, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;
Teri-tanosil kasalliklar kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
Pedagogika-psixologiya kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 2 o'rin.

DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI

Umumiy amaliyot oilaviy meditsina kafedrasida, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;
Oftalmologiya kursi, assistent lavozimiga - 1 o'rin;
Tibbiy radiologiya kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin.
Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.
Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.
Katta o'qituvchi yoki Assistant o'qituvchi lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, A. Temur ko'chasi, 18. Ulug'bek Ochilov, ilmiy kotib

2022 yil 30-may 2-Ichki kasalliklar kafedrasida mudiri E.N. Tashkenbayeva tomonidan

«Ko'krak qafasidagi og'riqlarning differentsiyal diagnostikasi. Miokard infarkti kechishining o'ziga xos xususiyatlari. UASH taktikasi. Profilaktika va davolash tamoyillari» mavzusida ochiq ma'ruza o'tqaziladi.

Barcha professor-o'qituvchilar, magistr, klinik ordinatorlar va talabalar taklif etiladi.

Manzil: RShTTYoIM Samarkand filiali Shoshilinch terapiya bo'limi 2-Ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali (7-qavat).

«Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar» kafedrasida 2022 yil 31-may kuni ichki kasalliklar fanidan soat 9:30da kafedraning ma'ruzalar zalida Tibbiy profilaktika fakultetining 2-kurs talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: «Прием пациента в стационар».

Ma'ruzachi: SamDTU Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti t.f.n. Ishankulova Dilorom Kamarovna.

Manzil: SamDTU Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasida ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Tibbiy profilaktika fakulteti 2-kurs talabalari, klinik ordinatorlar, magistr, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

Kafedra mudiri: PhD., dots. Z.B. Babamuradova

Davolash Fakulteti OCHIQ MA'RUZA E'LONI

Mavzu: Nospesifik yarali kolit. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi laborator-instrumental diagnostikasi, davolash.

Ma'ruzachi: 4-ichki kasalliklar kafedrasida dotsenti, A.Dusanov.

Ekspertlar: Professor S.Abdullayev. Dotsent Sh.Ziyadullayev

Sana: 14.06.2022 soat 13:10da

O'tkazilish joyi: Kafedra ma'ruza zalida

Taklif qilinganlar: Davolash fakulteti VII-kurs 525-528-guruh talabalari, klinik ordinatorlar, bo'lim vrachlari, poliklinika vrachlari, dekanat ma'sul xodimlari, institutning terapevtik kafedralari xodimlari va hohlovchilar.

3-son Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida 1-TTJda «Sog'lom turmush tarzi» mavzusida tadbir o'tkazilishi mubosabati bilan barcha ustoz va talabalarni 2-iyun kuni soat 14.30da talkif qilamiz.

Kafedra mudiri: L.A. Muhammadiyeva



Hurmatli talabalar, magistr, klinik ordinatorlar!

Sizni DTKF terapiya, kardiologiya va funktsional diagnostika kafedrasida mudiri dotsent I.R. Agababyaning terapiya va kardiologiyaning dolzarb muammosi haqidagi «ATRIAL fibrillatsiyali bemorlarda antikoagulyant terapiyaning xavfsizligi» mavzusidagi ochiq ma'ruzasiga taklif qilamiz.

Ochiq ma'ruza 2022-yil 21-iyun kuni soat 10:00da Samarqand viloyat kardiologiya markazi ma'ruza zalida bo'lib o'tadi.

Manzil: Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 144.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:
**G'U. LUTFULLAEV,
S.A. KARABAEV,
A.A. AXMEDOV,
J.F. KADIROV,
B. E. TO'XTAROV,
F. DAMINOV.**

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:
S. Halimov

Operator va sahifalovchi:
**A. Amonov
Fotomuxbir:
O. AXMEDOV**

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.
INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi